



ICHKI ISHLAR ORGANLARIGA QILINGAN MUROJAATLARNI BAHOLASH ORQALI QONUN USTIVORLIGINI TA'MINLASH

Raxmonqulov Iskandar Anvarovich

IIV Akademiyasi Tashkiliy-shtab faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19440319>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 04-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 06-aprel 2026 yil

KEYWORDS

Inson, murojaat, huquq, qonun,
davlat, fuqaro, muammo, qaror.

ABSTRACT

Maqolada, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamiyatda qonun ustivorligini tahlil qilish bilan birga ichki ishlar organlarining undagi roli, ularning ish faoliyati va samaradorligini tahlil qilishga qaratilganligi holatlari bilan birga uchrayotgan muammo va takliflar yoritilgan.

“Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar”. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ilk moddasi aynan shu so‘zlar aks ettirilishi bilan boshlanadi. Ushbu **universal** (lotincha - **universalis** umumiy, keng qamrovli, ko‘p tomonlama. Ko‘p yoki hamma narsani o‘z ichiga qamrab olgan, har taraflama) hujjat 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 3-sessiyasida qabul qilingan. 1950-yildan boshlab deklaratsiya qabul qilingan sanani Xalqaro inson huquqlari kuni sifatida nishonlash BMT tomonidan joriy etilgan.

Mazkur xalqaro hujjatda har bir insonning shaxsiy daxlsizlik, mulkka egalik qilish, e‘tiqod va so‘z erkinligi, fuqarolik, davlat boshqaruvida qatnashish, saylash va saylanish, oila qurish, mehnat qilish va hordiq chiqarish, ta‘lim olish, tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, madaniyat va san‘at asarlaridan bahramand bo‘lish kabi eng muhim huquqlari kafolatlangan.

Islom olamida ham inson huquqlariga katta e‘tibor berilgan. Bunda Qur‘oni Karim oyatlari va hadislariga tayanilgan. Jumladan, qulchilik avj olgan zamonlarda islomda ilk bor qullarni ozod qilishga targ‘ib Qur‘on oyatlarida aks etgan. Shuningdek, insonning eng asosiy huquqi bo‘lmish yashash huquqi ham Qur‘on orqali ta‘minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar kuni kunidagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida murojaatlar bo‘yicha ayrim masalalar belgilab qo‘yildi.

- fuqarolarga muddatli, muayyan faktini tasdiqlovchi hujjatlarni berish va almashtirishni hamda kompozit davlat xizmatlarini ularning murojaatini kutmasdan turib taklif etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

- Davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni jamlovchi markazlashgan tizimni yaratgan holda ularni ko‘rib chiqish muddati va sifati ustidan raqamli nazorat o‘rnatish,

aholining kundalik turmush tarziga bevosita ta'sir qiluvchi masalalar bo'yicha murojaatlar tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash.

- Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, jamoaviy murojaatlar asosida hududiy, tarmoq va davlat dasturlari ijro sifatini tekshirish amaliyotini joriy etish.

- Ichki ishlar organlari xodimlarining "Kasbiy madaniyat kodeksi"ni amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash.

Ichki ishlar organlarini ma'naviy pok, o'z burchiga sodiq, xalqparvar va mas'uliyatli xodimlar bilan to'ldirish, ularning faoliyatini aholi muammolarini hal etish va fuqarolar murojaatlari bilan ishlash natijadorligi hamda ijtimoiy fikr asosida baholash tizimini joriy etish.

- mehnat sohasidagi murojaat va nizolarni o'rganish hamda ularni hal qilishga ko'maklashish maqsadida "**Mehnat-M**" markazi faoliyatini eksperiment tariqasida Toshkent shahrida tashkil etish,¹ maqsad sifatida belgilab qo'yildi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida ko'rsatilganidek, jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsad qilib olindi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

Shuningdek, - inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

-mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

-milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

-adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

-milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

-mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik (yunoncha **pragma**-ish, harakat) va faol tashqi siyosat olib borish kabi vazifalar belgilandi.

Demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yakkayu yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Bu borda biz har kuni izlanishdamiz, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, hayotimizni, ish uslubimizni takomillashtirishga harakat qilmoqdamiz.

Ta'kidlash joizki, 73-yil avval qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo'lida yangi imkoniyatlar ochdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvar kunidagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2024 y., 06/24/221/0003-son

qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-1-son qarorida asosiy maqsadlardan biri, har qanday noqonuniy holatlar yuzasidan murojaatlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish tizimini yaratish, bu boradagi faoliyatni bevosita joylarda samarali yo'lga qo'yish orqali aholi roziligiga erishish, kabi yangi ishlash mexanizmlari belgilandi.

Mazkur qarorda, qonun ustuvorligini ta'minlash choralari bo'yicha, tuman (shahar) prokurorlari va ichki ishlar organlari rahbarlariga - aholining huquqbuzarlik haqidagi har qanday murojaatlarini so'zsiz ro'yxatga olish, ko'rib chiqish natijasida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligini o'rganish hamda barcha jinoiy holatlar yuzasidan belgilangan tadbirlar o'z vaqtida, qonuniy va to'laqonli amalga oshirilishini tashkil etish bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklatilsin hamda bu borada qat'iy choralar ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilganligi ko'rsatildi².

Shuningdek: IIOga 2026-yil yakuniga qadar fuqarolarning huquqbuzarliklar to'g'risidagi og'zaki murojaatlarini soha va hududidan qat'i nazar, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat planshetlari orqali real vaqt rejimida yagona tartibda qabul qilish hamda tegishliligi bo'yicha tezkorlik bilan munosabat bildirish amaliyotini yo'lga qo'yiladi.

Joylarda olib borilayotgan "Ijtimoiy profilaktika haftaligi" doirasida, o'rganish natijalari bo'yicha murojaatning tegishliligiga qarab huquqiy maslahatlar berish bilan bir vaqtda masalani joyida hal etishga ustuvorlik belgilandi.

Biz bu borada mamlakatimizda inson huquqi va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida namoyon bo'lishi uchun barcha choralarni ko'rmoqdamiz. Fuqarolarimizning emin-erkin yashash, uy-joy va yer-mulkka ega bo'lish, sog'liqni saqlash, bilim olish kabi tabiiy huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida katta islohotlarni amalga oshirmoqdamiz.

Biz ana shunday muhim ishlarni qat'iy davom ettiramiz. Bizning ustuvor vazifamiz – inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir.³

Mamlakatimizda tobora rivojlanish sari odim qadam sari borish bilan bir qatorda davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun "Servis davlat" tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish, fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to'ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o'zi oladigan tizim yaratish, xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlarni qog'oz shaklida ro'yxatga olish amaliyotini bekor qilish, barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy bo'linmalariga elektron shaklda, shu jumladan tegishli mobil ilova orqali murojaat qilish imkoniyatini yaratish, murojaatlarning kamida 80 foizi mahalliy darajada qanoatlantirilishini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 1-son qarori. (*Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.01.2026 y., 07/26/1/0017-son*)

³ "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvar kuni PF-5633. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son)

ta'minlash, takroriy murojaatlar ulushini kamida 2 barobar qisqartirish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda ma'muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish, ma'muriy sudlarga bevosita murojaat qilishga to'sqinlik qilayotgan omillarni to'liq bartaraf etish, sudga qadar bosqichda nizolarni hal qilish samaradorligini 50 foizga oshirish, sudga qadar hal etilishi mumkin bo'lgan nizolar yuzasidan sudlarga kelib tushadigan ishlar sonini 50 foizga kamaytirish, aholiga yengilliklar va qulayliklar yaratish maqsad qilib belgilab qo'yildi.

Shu bilan birga aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlarni yaratish maqsadida, mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyati samarali yo'lga qo'yildi.

Barcha darajadagi rahbarlar o'z shaxsiy qabullarini tashkil qilib, yo'nalishi bo'yicha muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, bu boradagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezon sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Fuqarolarning mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish orqali mahallalarning xalq oldidagi nufuzi oshirildi.⁴

Shuni alohida ta'kidlash joizki, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, murojaatlar bilan ishlashning samarali tizimi faoliyatini ta'minlash, murojaat qilishga oid konstitusiyaviy huquqning so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish, kelib tushgan murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini tashkil etish, kelib tushgan hamda tegishliligi bo'yicha davlat organlariga, tashkilotlarga yuborilgan murojaatlarning ko'rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish, jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini (shu jumladan videokonferensyaaloqa vositasida) o'tkazish, kelib tushayotgan murojaatlarni qayd etish, umumlashtirish, tizimlashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda fuqarolarning murojaatlari "jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solingan bo'lib, aholining davlat organlari bilan munosabatga kirishishini huquqiy tartibga soladigan ushbu Qonunda ko'zda tutilgan normalar barcha davlat organlari, davlat ishtirokidagi tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari uchun birdek amal qilib kelmoqda.

Binobarin yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 40-moddasida "Har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022 yil 20 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart"ligi ko'rsatilgan.⁵

Qonun hujjatlarida ko'rsatilganidek, takroriy murojaat ayni bir murojaatchidan kelib tushgan, uning avvalgi murojaati yuzasidan tashkilot tomonidan qabul qilingan qarori ustidan shikoyati yoki murojaatni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilmaganligidan noroziligi bayon etilgan murojaatga aytiladi. Buni, murojaatning dublikatidan farqlash muhim ahamiyatga ega chunki, murojaatning dublikatida ayni bir jismoniy yoki yuridik shaxs murojaatining ko'chirma nusxasi beriladi. Ya'ni, murojaat muallifi murojaat bo'yicha tegishli tashkilotdan javob olmay turib, uning qarorini bilmay turib, o'sha murojaatni ko'chirma nusxasini takroran taqdim etishi tushuniladi.

Bundan tashqari, murojaatlarni ko'rib chiqishda qonuniylik; murojaatlarni o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqish; murojaatlarga nisbatan talablarning bir xilligi; jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi; murojaatlarni ko'rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo'l qo'yilmasligi; murojaatlarni ko'rib chiqishda davlat organlari, tashkilotlar va ular mansabdor shaxslari faoliyatining shaffofligi Qonunning asosiy prinsiplari sifatida 4-moddada belgilab berildi.⁶

Murojaatlarning ko'payishi, takroriy murojaatlarning ortib borish sabablarini va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni chuqur ilmiy-amaliy tadqiq qilish natijalari bo'yicha ushbu omillarni bartaraf etish maqsadida ilg'or xorijiy tajribalariga muvofiq asosiy **fokuslar** (lotincha **focus**-o'choq, olov), ya'ni asosiy murojaatlar kelib tushayotgan manbalar bilan ishlashga psixologlarni jalb qilish, murojaat qiluvchilar bilan bevosita shug'ullanuvchi **menejerlar** (inglizcha **manager**-boshqaruvchi, korxonalar va kompaniyalar egalari bo'lmagan, maxsus tayyorgarlik ko'rgan malakali yollanma boshqaruvchilar) faoliyatini yo'lga qo'yish, murojaatlar bilan ishlovchi mas'ullar malakasini oshirish va ularni uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, manfaatdor shaxslar tomonidan o'zlariga taalluqli murojaatlarning ko'rib chiqilishi holatini har bir bosqichda muntazam kuzatib borish va natijalarini baholash imkoniyatlarini yaratish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, har bir shaxsga o'zi uchun zarur bo'lgan sifatli va ishonchli axborotlarni olish imkonini beruvchi platformalarni yaratish, rasmiy va norasmiy **mediatsiya** (lotincha **mediator**-vositachi, o'rtada turuvchi) modellarini qo'llash orqali murojaatlar kelib tushishining oldini olishga qaratilgan ishlarni joriy etish tavsiya etiladi.

Ichki ishlar organlariga kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqishda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan ichki ishlar organlarida murojaatlar bilan ishlashni tashkiliy-huquqiy jihatdan, shu jumladan, samaradorlik, ochiqlik, shaffoflik, natijadorlik, zarur axborot va resurs bilan ta'minlanganlik nuqtayi-nazaridan takomillashtirish, qonunbuzilish holatlari haqida xabar beruvchi shaxslarning ta'qib qilinishi, ish joyini yo'qotishi, obro'sizlantirilishi va boshqa shakllarda moddiy va ma'naviy zarar ko'rishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ta'sirlardan

⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son // <https://lex.uz/uz/docs/6445145>

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

huquqiy himoya qilish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqish hamda bu borada meyoriy huquqiy hujjatlarni muntazam takomillashtirib borish lozim bo'ladi.

Jumladan:

- murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini qonunchilik hujjatlarida aniq yo'nalishlar va masalalar bo'yicha alohida-alohida belgilash;

- O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunida "**Mahkumlarning murojaatlarini ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlangan 24²-moddasini aks ettirish;

- Mazkur qonunning 21-moddasi to'rtinchi qismidagi "**dalolatnoma tuzilib**" so'zlarini "**ushbu kamchiliklarni tuzatish yoki bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmagan hollarda dalolatnoma tuzilib**" so'zlari bilan almashtirish taklif etiladi.

Bundan tashqari, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishning samaradorligini oshirish va ochiqligini ta'minlash strategiyasi" yoki "Murojaatlar bilan ishlashning rivojlantirish strategiyasi"ni ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Mazkur strategiya orqali, fuqarolar va tashkilotlarning murojaatlarini tezkor, shaffof va adolatli tarzda ko'rib chiqish tizimi (mexanizmi)ni yaratish maqsadga muvofiq.

Bundan, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari qisqarishi, fuqarolarning davlat tashkilotlariga ishonchi ortishi, shikoyatlar soni kamayishi va davlat xizmatlari sifati yaxshilanishi kabi natijalarga erishiladi.

Mazkur takliflarning amalda joriy etilishi murojaatlar bilan ishlashga doir yangi huquqiy mexanizmlarning amalga kiritilishiga, murojaat qilish jarayonlari soddalashtirilishiga, murojaatlarning ko'rib chiqilishi va hal etilishi yanada takomillashtirilishiga xizmat qiladi.

Aholi muammolari bilan ishlash bo'yicha amaldagi tizimning samaradorligi joriy qilinishi mumkin bo'lgan ilg'or xorijiy tajriba, shuningdek, hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarga yechim topishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy va moliyaviy chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqish borasida, murojaatlar bilan ishlash, nizolarni boshqarish va hal etish yo'llari, murojaat etuvchilarning o'z murojaatlari ko'rib chiqilishi natijalaridan qanoatlanishi qonuniyatlari, axborot olishga bo'lgan huquqlar himoyasi, murojaatlar matnini tahlil qilish asosida avtomatik tasniflash hamda qonunbuzilish holatlari to'g'risida davlat organlariga xabar bergan shaxslarni himoya qilishga doir huquqiy mexanizmlar, bu borada xalqaro prinsiplar, sohaga oid yetuk va madaniy masalalar, bunday shaxslarga tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish lozim.

Shuningdek, **petitsiya** (lotincha petitio - da'vo qilish, shikoyat, ariza, oliy davlat organiga yoki hukumat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan birgalikda berilgan rasmiy yozma ariza, iltimosnoma) instituti mohiyati, uning vaqt, makon va siyosiy tizimlar kesimida rivojlanishi, ommaviy onlayn petisiyalarni tavsiflash, elektron petisiyalar tizimining parlament va aholining o'zaro aloqadorligidagi samaradorlik mezonlarini yo'lga qo'yish va belgilash hamda bu borasida xalqaro tajribalarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Kafolat - arabcha - kafillik, ta'minlash, garov. Kafil bo'luvchi narsa shaxs.

Huquq - arabcha - haq. Davlat hokimiyati tomonidan belgilangan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini va boshqalarni tartibga soladigan qonun-qoidalar, meyorlar majmui. (kimsaga biror ish harakat qilish uchun berilgan, davlat qonunlari yoki boshqa bir qonun-qoidalar bilan mustahkamlangan, kafolatlangan imkoniyat, erk, ixtiyor

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son // <https://lex.uz/uz/docs/6445145>
- 2) O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
- 3) O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son // <https://lex.uz/docs/104720>
- 4) Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 7-maydagi 341-son qarori
- 5) "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvar kunidagi PF-5633. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son)
- 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 17.02.2026-y., 06/26/21/0145-son)
- 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 1-son qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.01.2026-y., 07/26/1/0017-son)
- 8) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
- 9) O'zbekiston Respublikasi IIVning 2024-yil 24-aprel kunidagi "Ichki ishlar organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 200-son buyrug'i.